

**OILA PSIXOLOGIYASI VA UNING AHAMIYATI.
FAMILY PSYCHOLOGY AND IMPORTANCE**

Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD Vahobova

O'g'iloy Tolibjonovna Filologiya fakulteti talabasi

Sobirova Dilorom Muzaffarjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarning inson ruhiyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Oilaviy muhitning shaxsiy rivojlanishga, psixologik barqarorlikka va ijtimoiy moslashuvga ta'sirini yoritib beradi. Shuningdek, maqolada oilaviy nizolar, ularning kelib chiqish sabablari va ularni hal etish yo'llari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida oilaviy munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan tavsiyalar beriladi.

Abstract: In this article, the impact of family relations on the human psyche is analyzed. The family environment is covering the impact of personal development, psychological stability and social adaptation gives. Also in the article, family disputes, the causes of their origin and their solution. Dis of the development will be discussed. Family attitudes based on the results of the study. The recommendations aimed to improve will be given.

Kalit so'zlar: Oila psixologiyasi, oilaviy munosabatlar, psixologik barqarorlik, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiylashuv, oilaviy nizolar.

Keywords: Family Psychology, Family, Psychological Sustainability, Personal Development, Socialization, Family Disputes.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o'rni beqiyosdir. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog'lomligiga bog'liq bo'lganidek, butun organizm o'z faoliyatini maqsadga muvofiq amalga oshirishida har bir hujayraning munosib o'rni bo'lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir. Jamiyat taraqqiyotining bugungi holati hozirgi zamon oilasi oldiga o'ziga



xos yangi ijtimoiy vazifalarni ham yuklaydiki, bularning barchasi hozirgi yoshlarimizni oilaviy hayotga maxsus tayyorlash masalasi eng dolzarb masalalardan biri bo'lishligini taqazo qilmoqda. Shuning uchun psixologlar yoshlar va yosh oilalar bilan ko'proq muloqotda bo'lib, ularning qarashlarini o'rganishmoqda. Oila rivojlansa davlat rivojlanadi, shuning uchun avvalo rivojlanishni oiladan boshlash kerak. Oilaviy ijtimoiylashuvning qadri va ahamiyati shundaki, uning ta'sirida birinchidan, shaxs katta, mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi, o'ziga yarasha sifat va fazilatlarni shakllantirib boradi, ikkinchidan, har tomonlama yetuk, barkamol, aqlli, soh va salomat shaxs bo'lib yetishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, oila va uning sog'lom ma'naviy muhiti bolani jamiyatda yashashga, o'ziga o'xshash shaxslar bilan murosa qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli bo'lish, muomalada ahloq-odob normalariga bo'ysunishga o'rgatadi, psixologik jihatdan tayyorlaydi. Oilaviy sotsializatsiya jarayonini bir tomonlama, ya'ni, farzandlar tarbiyasidagi roli bilan cheklash tog'ri bolmaydi¹. Chunki ayniqsa, yosh oilada nikohdan so'ng er va xotin boshqa oila a'zolari jamiyatida xohlasa-xohlamasa o'z-o'zidan tarbiyalanib, xarakter xislatlarini o'zgartirib boradilar. Masalan, ilgari tortinchoq, uyatchan, ikkilanuvchan yigit, uylangach, turmush ortog'i nigohida obrosi mehr-muhabbat tufayli oshgan sari, o'zida kuch-qudratni, irodani sezib, dadil, faol, o'ziga nisbatan ijobiy fikrli, aqlli, bosiq bo'lib borishi tabiiy. Keling ham yangi xonadon sharoitiga ko'nikib borgan sari, uning an'analarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirib borgan sari, turmush ortog'ining mehrli muhabbati, qaynnona va qaynotaning g'amxorligi, e'tiborliligi oqibatida yanada iffatli, sermulohazali, ziyrak va farosatli bolib, ozidagi ilgari mavjud ayrim salbiy xarakter sifatlaridan qutulishi ham mumkin.² Bu – er va xotin uchun oila muhitining yangi bosqichdagi ijtimoiylashuv maskani sifatidagi o'rnini isbotlaydi. Olimlar otkazilgan qator tadqiqotlar asosida ana shunday omillarning to'rt guruhini ajratganlar: ota-onalar o'rtasida murosaning yo'qligi, oilaviy o'zaro munosabatlarni mustahkamlash borasida aniq belgilangan ahloqiy tamoyillarning mavjud emasligi; ota-onalarning ruhiy nosog'lomligi va qonunbuzarligi; yashash sharoitlarining yaxshi

¹ Социология семьи: Учебник / Под ред. проф. А.И. Антонова. - М.: ИНФРА-М, 2005 – С. 220

² Андрееenkova Н. Роль семьи на разных этапах социализации индивида // Динамика изменения положения женщины и семья. – М.: 1972. – С



emasligi, bolaning tolaqonli o'sishi, dars tayyorlashi, jismonan chiniqishi uchun sharoitlarning yetarli emasligi; maktab sharoitining talab darajasida emasligi kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Oilalarda hozirda mavjud bo'lgan gender tafovut haqida so'z boradi. Ko'plab o'tkazilgan tadqiqotlar va turli yo'nalish vakillarining feminizm va jinslararo tafovutlar tog'risidagi fikrlarini umumlashtirib, shuni e'tirof etish mumkinki, ikkita asosiy shart aniqlanganda, jinsiy tafovutlar borligi tasdiqlanadi: jinsiy tafovutlarning realligini erkak va ayoldagi u yoki bu psixik xususiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi farq kamida 10 % va undan yuqorini tashkil etgandagina tan olish; hech bo'lmaganda, bir jins 20 % dan kam bo'lmagan ko'rsatkichni namoyish etgan natijalarnigina o'rganib chiqish, ya'ni, bu – erkak yoki ayolda qayd etilgan shaxsiy xususiyatlar yoki xulqqa to'g'ri tavsifnoma berilganini kamida 5-6 nafar tekshirilayotgan insonlar yoki ekspertlar bir ovozdan ma'qullashganda. Ya'ni, metodologik nuqtai nazardan, jinsiy tafovut bor. Hozirgi yoshlarda oilaga nisbatan bo'lgan munosabati avvalgi odamlarnikiga qaraganda ancha yengil. Ajralishlar soni ham kundan kunga ko'paymoqda. Buning oldini olish uchun psixologlar yoshlar, yosh oilalar bilan ko'proq suhbatlar olib borishyapti. Natijada yoshlarning oila borasidagi qarashlari o'zgarib bormoqda ekanligi ushbu statistik qoidalar rioya etilgandagina tan olinadi. Davr talabidan kelib chiqayotgan bu vazifa o'zbek psixologlari oldiga qator muammolarni qoyish bilan birgalikda ulardan gender muammolari, jinsiy tafovutlar masalasiga ilmiy jihatdan yondashishni taqozo etadi. SHuni alohida ta'kidlash joizki, og'il va qizlarning ijtimoiy tasavvurlarida jinsiy tafovutlarga oid tushuncha, bilim va konikmalar, stereotiplar eng avvalo oilada shakllanadi. SHuning uchun ham oila psixologiyasi doirasida aynan jinsiy tafovutlar va gender muammolari organilishi va amaliyotda qanday ekanligi tadqiq etilishi kerak. Gender psixologiyasi – psixologiya fanining bir sohasidir. Boshqa sohalar singari u ham oz tarixiga ega. Ammo bu tarixni XX asrning 70-yillaridan boshlab O'rganish noo'rin deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, uni fenemizm mevasi deyish ham noto'g'ri. Biroq fanning asosiy xizmati zamonaviy psixologik muammolarga jamoatchilik fikrining jalb qilinishi hisoblanadi. Oila psixologiyasi — bu oila ichidagi individual va o'zaro munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadigan ilmiy soha bo'lib, unda oilaning har bir a'zosi o'z hissiy holati,



ruhiy xususiyatlari, o'zaro munosabatlar va bu munosabatlarning oila tizimiga ta'siri tahlil qilinadi. Oila psixologiyasining muhimligi shundaki, oila — insonning eng yaqin va ko'p vaqtini o'tkazadigan ijtimoiy birlashmasidir, shu sababli uning psixologik salomatligi va farovonligi insonning umumiy ruhiy holatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Oila psixologiyasining markazida oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, ishonch, hurmat va tushunishning shakllanishi yotadi. Oila ichidagi sog'lom va o'zgarmas munosabatlar, oilaviy farovonlikni ta'minlashga, bir-birini qo'llab-quvvatlashga va hissiy ziddiyatlarni hal qilishga yordam beradi. Aksincha, salbiy psixologik muhit, o'zaro tushunmovchiliklar va doimiy xafagarchilik oila ichidagi ruhiy salomatlikni buzishi mumkin. Oila psixologiyasidagi boshqa bir muhim jihat — bu oilaning o'zgaruvchan tabiatidir. Oila — bu jamiyatning asosiy birligi bo'lib, unda psixologik muhitning sog'lomligi jamiyatning umumiy farovonligiga ta'sir qiladi. Oila ichidagi yaxshi psixologik holat, o'zaro hurmat va mehr-oqibat jamiyatda salbiy ijtimoiy xulq-atvorning kamayishiga, ijobiy psixologik muhitning shakllanishiga olib keladi.³ Shunday qilib, oila psixologiyasi, nafaqat oila ichidagi individual psixologik salomatlikni, balki oilaning jamiyatdagi rolini, oila a'zolari orasidagi muammolarni hal qilishning samarali usullarini o'rganish va psixologik farovonlikni ta'minlashga katta hissa qo'shadi. Oila psixologiyasiga alohida e'tibor berish oilaning umumiy farovonligi va ijtimoiy barqarorlik uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. D. Abdullayev, R.Yorqulov, N.Atabaev (Oila psixologiyasi)
2. Vasila Karimova (Oila psixologiyasi)
3. Sharipova, N. (2023). PHONETICS: UNLOCKING THE SOUNDS OF LANGUAGE. B ZDIT (T. 2, Выпуск 27, cc. 22–24). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10321056>
4. Sharipova Nodira Shavkat Qizi, . (2024). TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS

³ Oila psixologiyasi oiladagi psixologik jarayonlar, munosabatlar va ularning inson ruhiy holatiga ta'sirini o'rganadi. Qarang: X. Karimov, "Oila psixologiyasi asoslari", Toshkent, 2020.



USING CLIL METHOD IN CLASS. International Journal of Pedagogics, 4(06), 161–164.

<https://doi.org/10.37547/ijp/Volume04Issue06-29> .

5. Abdurasulov, J. (2024). PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF MILITARY

PATRIOTIC EDUCATION IN GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS. B

INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (T.

4, Выпуск